

FARS INTERNATIONAL JOURNAL OF EDUCATION, SOCIAL SCIENCE & HUMANITIES



E-ISSN NO: 2945-4492



**FARS INTERNATIONAL JOURNAL OF EDUCATION,
SOCIAL SCIENCE & HUMANITIES**

About Journal:

The mission is to facilitate global dissemination of academic information for mankind. The journal is open to all who wish to report on current research & development and summaries of special projects of interest to engineering scientists.

Open access online peer reviewed International Journal, where all the research articles are published under OPEN ACCESS MODEL. Open access publishing allows accepted peer reviewed articles to be made freely available online to everyone as soon as they are published. Open access publishing is funded through author article processing fees. Non – commercial use and distribution in any medium is permitted, provided the author and the journal are properly credited.

Chief Editor: - DR MOHAMMAD AFSAR ALAM

Frequency: - Bi-Monthly

Country: - Finland

Language: - English

Start year: - 2015

Web site: - www.farspublishers.org

INDEXING:



Academia.edu

OPEN ACCESS



CiteFactor
Academic Scientific Journals

SciHorizon
Premium Open Access Scientific Research
Articles and Researchers Hub

POLISHING OF AGRICULTURAL TERMS IN FICTION	
Adizova Nilufar Istamovna RANGLARNING BADIY MATNDAGI JILOSI	484
Tajimirzayev Elyorbek Baxtiyarov Bekzodbek Maxammaxsoliyevich O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGIGA A'ZO MAMLAKATLAR BILAN ALOQALARI	493
Xalilov Hikmatulla Dilshod o'g'li Qayimov Mirzohid Normurotovich Tursunov Boburjon Faziljon o'g'li Mansurova Ruxshona Jasur qizi BOSH MIYA YARIMSHARLARI FIZIOLOGIYASI	504
Мухаммадиев Бахтияр Сапарович ВНЕДРЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИЗМЕРИТЕЛЬНЫХ ПРИБОРОВ В МАШИНОСТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.	509
Б.М.Исаков, Н.Ю.Мирзаюлдашев, К.Б.Исаков. СПОНДИЛОЛИСТЕЗ И ЕГО ХИРУРГИЧЕСКОЕ ЛЕЧЕНИЕ.	518
Avazbek Nasirdinov JAMOAVIY IJODNING AHAMIYATI IJODIY GURUHLAR MISOLIDA	523

RANGLARNING BADIY MATNDAGI JILOSI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14252333>

Adizova Nilufar Istamovna

Buxoro davlat universiteti O'zbek tilshunosligi va

jurnalistika kafedrası dotsenti, f.f.d.(PhD)

nilufar.adizova71@gmail.com.

Annotatsiya

so'z badiiy tasvirning asosiy quroli, obraz yaratishning muhim vositasidir. Mahoratli ijodkor har qanday til birligidan mohirona foydalanadi, uning sehr-u jozibasini namoyon etgan holda umrboqiy asarlar yaratib qoldiradi. Badiiy matnda qo'llangan har qanday vosita ijodkorning boy tasavvuri hamda muayyan millatning milliy-ma'naviy qarashlarini o'zida aks ettiradi. Jumladan, rangni ifoda etuvchi birliklar ham. Ushbu maqolada rang bildiruvchi ayrim birliklarning poetik matnda tutgan o'rne, lingvopoetik va ramziy ma'no qirralari, jozibasi yoritib beriladi.

Kalit so'zlar

badiiy tasvir, ranglar jozibasi, poetik matn, zohiriy ma'no, botiniy ma'no, alvon, lolagun, lojuvard, firuza, qora, qizil, oq.

Аннотация

слово – главный инструмент художественного образа, важный инструмент создания образа. Искусный художник умело использует любую языковую единицу, показывая ее волшебство и очарование, создавая произведения на всю жизнь. Любые средства, используемые в художественном тексте, отражают богатое воображение творца и национально-духовные взгляды конкретного народа. Включая единицы измерения цвета. В данной статье будет освещена роль отдельных цветовых единиц в поэтическом тексте, их лингвопоэтический и символический аспекты, их привлекательность.

Ключевые слова

художественный образ, очарование цвета, поэтический текст, внешний смысл, внутренний смысл, фиолетовый, лавандовый, бирюзовый, черный, красный, белый.

Abstract

the word is the main tool of the artistic image, an important tool for creating an image. A skilled artist skillfully uses any language unit, showing its magic and charm, creating works that will last a lifetime. Any means used in a literary text reflect the rich imagination of the creator and the national and spiritual views of a particular people. Including color units. This article will highlight the role of individual color units in a poetic text, their linguapoetic and symbolic aspects, and their attractiveness.

Key words

artistic image, charm of color, poetic text, external meaning, internal meaning, purple, lavender, turquoise, black, red, white.

Kirish. Har qanday badiiy asar ta'sirchanligi ijodkorning til hodisalaridan foydalanish mahorati bilan baholanadi. Adabiyotshunos olimi I.Adizova aytganidek, "She'riyat bu tuyg'ular va ruhiyat hayotining ifodasidir. Shu sababli ham ularni tasvirlovchi, izohlovchi leksema ma'nolari oddiy, kundalik so'z ma'nolaridan farqlanadi...Demak, she'riyatda har bir so'z o'zining botiniy hayotini ham yashaydi. Zohiriy ma'nodan tashqari, haqiqiy poeziyadagina uyg'onadigan botiniy (ichki) ma'no ham junbishga keladi." [1,34]

Badiiy adabiyotning har qanday ko'ngilga kira oladigan kuchli quroli, go'zal kuylar yaratuvchi sozi bo'lmish so'zni tovlantira olish, jilolantirish, uni "gavhar"ga, "zabarjad"ga aylantirib, kaftda tutib, asar gultojiga qadamoq, albatta, ijodkorning til hodisalaridan foydalanish mahoratiga bog'liqdir. Zotan, hassos shoir Oybek ta'biri bilan aytganda, "Toshga ham, rangga ham, so'zga ham Hayot nuri bilan ber jilo. Nash'a emas, hatto senda g'am-Qalbg'a solsin hayotdan ziyo" [5,42].

Tadqiqot metodi. Haqiqatan ham, so'z badiiy tasvirning asosiy vositasi, obraz yaratishning muhim omili ekan, ijodkor so'z vositasida ijtimoiy turmushning muayyan kartinasini yoki hayotning bir bo'lagini, qirrasini o'quvchi tasavvuriga so'z bilan muhrlaydi, uning ko'z o'ngida obraz-u manzaralarni jonlantiradi, qahramonning ruhiy olamiga rang-baranglik baxsh etib, o'ziga xos xarakter yaratadi; muayyan tilning jozibasini, millatning qarashlari va ruhiyatini aks ettiradi. Jumladan, badiiy matnda qo'llangan rang ifodalovchi birliklar ham o'zining botiniy ma'nosi bilan shoir maqsadiga hamohang tarzda asar mazmunini boyitishga hissa qo'shadi. Ularni anglash uchun voqelikka shoir ko'zi bilan boqish, xalqning o'ziga xos qarashlari va an'analaridan voqif bo'lish lozim.

Jumladan, o'zining umrboqiy asarlari, insoniyligi, so'z qo'llashdagi zargarona mahorati, falsafiy, xalqona qarashlari bilan elning qalbidan chuqur joy olgan o'zbek shoiri, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov ijodida ham so'zlar o'zining betakror jozibasi, botiniy va zohiriy ma'no qirralari bilan o'quvchi qalbining tub-tubigacha yetib boradi. Uning ijodida har bir so'z goh oddiyligi bilan, goh olmos kabi serjiloligi bilan joziba taratadi. Jumladan, rangni ifoda etuvchi birliklar ham. Zero, yozuvchi Oybek ta'biri bilan aytganda, poeziyada "...so'zlar chertib, tanlab olinishi, har bir so'z uzukka qo'yilgan qimmatbaho tosh kabi porlashi lozim." [7,104]

Natijalar. O'zbek tilida oq, qizil, qora, ko'k, sariq, moviy, qirmizi, pushti, zangori, yashil, malla kabi rang bildiruvchi sifatlar o'ziga xos leksik-semantik, grammatik, hamda uslubiy xususiyatlarga egadir [4,15]. Tilimizdagi bu kabi so'zlarning asl ma'nosi zaminida biror narsa, shaxs, predmet yoki hodisaning rang-tusi ma'nosi yotsa-da, badiiy matnlarda ular ekspressivlik va emotsionallikni oshirish, ta'sirchanlikni kuchaytirish maqsadida, asosan, ko'chma ma'noda aks etadi. Ayniqsa, oq, qora ranglari xalq iboralari, maqol, matallarida juda keng qo'llanadi. Badiiy asarlarda ranglarning turli uslubiy mazmun-mohiyat bilan aks etishi dunyo xalqlari ijodiyotida ham, o'zbek adabiyotida ham mavjud. Jumladan, Erkin Vohidov dostonlarida ham rang bildiruvchi sifatlar hamda ularning ozaytirma, orttirma daraja shakllari shoirning muayyan maqsadlarini ifodalash, mazmunni boyitish, syujetning ta'sirchanlik kuchini oshirish uchun qo'llanganini kuzatish mumkin. Ranglarning voqea mohiyatiga mos tanlab qo'llanishi muallifning boy falsafiy tafakkur tarzi va milliy-madaniy jihatlarning uyg'unligini aks ettiradi.

Xalq ijodiyoti namunalarida qora, oq, qizil kabi ranglar ko'proq qo'llanishi ko'zga tashlanadi. Etnograf V.Trener oq, qizil, qora rang uchligining marosimlarda ifodalovchi ma'no qatlamlari orasida oqning er kishi, qizilning ayol va qoraning motam bilan bog'liq talqinlari muhim o'rin tutishini yozgan [6,84]. Ushbu ranglar xalq og'zaki ijodiyotida ham shu tarzda talqin qilinib, qora rang, asosan, motam, ayriliq, qayg'u-hasratli voqealar ifodasi, oq rang erkak, qizil rang ayol bilan bog'liq ijobiy hodisalarga ishora tarzida qo'llangan. Bundan tashqari oq rang poklik, qizil rang jo'shqinlik ramzi sifatida ham aks ettirilgan.

Muallif dostonlarida ham qora rang, asosan, qahramonlarning fojiali, baxtsiz ahvolini tasvirlash, qayg'u-alam ko'lamini bo'rttirib ifodalash uchun qo'llanilgan. Masalan, quyidagi misralarga nazar tashlaydigan bo'lsak, muallifning "o'q"ni qora deb tasvirlashi asosli, zotan, uning rangi qanday bo'lmasin, u inson boshiga kulfat, g'am-tashvish keltiradi, fojialar, ayriliqlarga sababchi bo'ladi. Shoir rang

ifodalovchi sifat vositasida “qora o‘q” metaforik ifodasini hosil qiladi va ta’sirchanlikni oshirishga erishadi. Misralar davomida lirik qahramon bolaligini xotirlar ekan, ko‘z o‘ngida uqubatlar girdobida erta yo‘qotilgan bolaligi qop-qora ranglarda jonlanadi va qahramonning cheksiz sog‘inch va armonlar ichida o‘rtanishlari “zanjiday qaro” o‘xshatishi orqali aks etadi:

Bag‘rim o‘yib,

Bu kun menga bermoqda azob

Sizning ko‘ksingizni teshgan qora o‘q...

Qishloq ko‘chasidan zanjiday qaro

Olov bolaligim yugurayotir. (“Nido” dostonidan)

Urush davrida keladigan “qora xat”larning ham o‘qdan kam joyi yo‘q. U ham xonadonlarga, oilalarga kulfat, qayg‘u olib keladi, bolalarning yetim qolishiga sababchi bo‘ladi. Shoir o‘zi oq bo‘lsa-da, kelishi qorong‘ulikning rangidek dahshat, azob-u uqubatni boshlab keluvchi xatlar dahshatini “qora” sifati orqali metaforik ifoda tarzida yanada bo‘rttirib ko‘rsatadi:

Darsga kelmay qoldi

Tunov kun Tal‘at,

Muallim urishsa turaverdi jim.

Dadasidan kelgan ekan qora xat.

Hammamiz yig‘ladik Hatto muallim...

Bu yerda baxt bo‘lsin, nur bo‘lsin,

Bo‘lmasin qaro tun zulmati.

Bu yerda yuraklar hur bo‘lsin.

Qaytmasim u kunlar dahshati. (“Nido” dostonidan)

Ufqlarga tutashgan

Ko‘k dengizning ortida

Bir o‘lka bor.

Unda el

Siynasi chok, bag‘ri qon.

Qaro tun sochin yoygan

Bu xarobot yurtida

Sulton nomli bir zolim

Xalqni ezar beomon.

Tutqun qizlarga to‘la

Unda haramxonalar...

Buncha zolim

Garduni-dun

Buncha balo bo'lmasa.

Yetgaymidim

Tole nigun,

Baxtim qaro bo'lmasa... ("Orzu chashmasi" dostonidan)

Ushbu misralar orqali Toshkentda 1966-yilda sodir bo'lgan zilzila fojialari va u keltirgan talafotlarni shoir "qora sahifalar" da aks ettiradi:

O'tdi dahshatli kun,

Qora sahifa.

Bugun studentlar

To'qir latifa... ("Palatkada yozilgan doston" dan)

O'zbek millati uchun qora rang, asosan, baxtsizlik, g'am-kulfat ifodasi bo'lsa, oq rang beg'uborlik, soflik, xotirjamlik, umidvorlik ramzi sifatida xalqimiz madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida keltirilgan misralarda muallif ko'chaning boshqa ko'chalardan obodligi, ravon hamda tozaligiga ishora tarzida lavha ham boshqa rangda emas, faqat oq rangdagi marmarga yozilishi lozim degan fikrni singdiradiki, o'quvchi ko'z o'ngida nafaqat tasvir, balki yoshlarga xos beg'uborlik, betashvishlik, jo'shqinlik ham namoyon bo'ladi:

Katta ravon shahroh nomin

"Pokizalik" deb qo'ying.

Oq marmardan lavha qo'yib

Navoiydan bayt o'ying. ("Palatkada yozilgan doston" dan)

Yoki

Dada, U kun sizni tushimda ko'rdim.

Oq otda keldingiz, so'radingiz suv. ("Nido" dostonidan)

Hilpirardi yel bilan o'ynab

Oppoq shohi ro'mol boshida. ("Orzu chashmasi" dostonidan)

Oq rangni muallif yoshi ulug'lik ramzi sifatida ham qo'llaydi:

...Qolganlar umrning sarhisobin qilar,

Soch oqiga boqib surarlar xayol. ("Nido" dostonidan)

Ko'k, ko'kish, moviy, qirmiz, qizg'imgir kabi yorqin ranglarni muallif xotirjamlik, osudalik, tinchlik ifodasi sifatida qo'llaydi, biroq bezovtalik, noxushlik hamda fojiali holatlar tasviri uchun qizil, qip-qizil ranglarini tanlaydi va badiiy uslubning jozibadorligini oshiradi:

Boshpanamiz moviy osmon,

Yulduzlardir ko'rpamiz... ("Palatkada yozilgan doston" dan)

Moviy edi shishadek osmon,

Moviy edi qirlar beg'ubor.

Moviy edi ko'zimga jahon,
Telegramda bahor. ("Baxmal" dostonidan)
... Xira bo'lsin, ko'kish bo'lsin
Bu xiyobon chirog'i...("Palatkada yozilgan doston"dan)
... Dengiz yuzi bo'lganda qirmiz,
Suv bo'yida Olardi orom
Sevganining og'ushida qiz. ("Orzu chashmasi" dostonidan)
Ko'z olguvchi qizg'imtir otash
Yonganida har bir yaproqda. ("Baxmal" dostonidan)
Ko'tarildi dengizdan quyosh
Suvni bo'yab qip-qizil qonga.
Quyosh bilan el ko'tardi bosh,
To'yxona ham
Uyg'ondi tongda.
Uyg'ondi-yu, qo'zg'aldi faryod... ("Orzu chashmasi" dostonidan)

Muallif muayyan ranglar jilosida tovlanuvchi ifoda birliklar orqali ham betakror manzaralar tasvirini jonlantiradi, voqealarni turfa ma'nolar bilan boyitadi. Masalan, alvon (Ufq yopmay yuziga alvon, Yelkasiga qo'yib ko'zasin, Yo'l olardi ko'k chashma tomon.), lolagun (Olam nur qo'ynida yashnar lolagun.) birliklari qizil rangni ifodalasa, lojuvard (Moviy dengiz sohillari, Lojuvard osmon, Jonbaxsh havo, bepoyon suv, so'lim tabiat.) ifodasi moviy, havorang sifatida qo'llanadi, firuza (Suv bo'yiga asta cho'kib tiz, Ko'ngli kabi tiniq firuza Chashma bilan so'ylashadi qiz.) rangi esa sofflik, xotirjamlikni ifodalash omili bo'lib, moviy rangni yodga soladi.

Yoki o'zbek xalqining ma'rifatparvar, olovyurak shoiri Cho'lpon ijodini ham kuzatadigan bo'lsak, xalq madaniy qarashlari asosida shakllangan ranglarning o'zgacha ifodasini, til birliklarining shoir yashagan davr ruhiga mos tanlanganini kuzatish mumkin. Zotan, adabiyotshunos olim I. Haqqulov yozganidek, "Davri ruhi, zamon nafasi, jamiyat dardi ham dastlab ijodkor shaxsiga ta'sirini o'tkazib, undan so'ng asarlariga ko'chadi." [3,20]

Masalan, quyida keltirilgan misralarda Cho'lpon atrofning qor bilan qoplanishi manzarasini "oq kafanga o'rash" tarzida ifodalaydiki, o'quvchining xayolida beixtiyor zamonning nozikligi, turmushning og'irligi namoyon bo'ladi. Keyingi misralarda esa shoir "oq" sifatini qo'llamasa-da, o'quvchi tasavvurida voqelik tasviridan oppoq rang jonlanadi:

Yana qor. Oq kafan o'raldi yana,
Yana ko'k quydi yerga parlarini,

Qarg'aning tillari burildi yana,

Yana qish chorladi nafarlarini.

Yana qish... Qor kafan yopildi yana,

Qarg'aga to'y... o'yin topildi yana. ("Yana qor" she'ridan)

Umuman olganda, Cho'lpon ijodida ham oq rang yorug'lik, umidbaxshlik, soflik ma'nolarini ifoda etadi. Masalan, quyidagi misralarda shoir ezilgan, xo'rlangan, erksiz, begunoh kishilarning haqsizlik, mustamlakachilik qurbonlariga aylanayotganligini "oppoq dillar" ifodasi orqali o'quvchiga yetkazadi:

Ay tutqunlar, ay ezilgan,

Ay qiynalgan yo'qsil ellar,

Ay umidsiz, ay chizilgan

Dor oldiga... Oppoq dillar! ("Vijdon erki" she'ri)

Qora rang ta'sirchanligidan Cho'lpon ham zulmat, qayg'u, xo'rlik, azob-uqubat, o'lim kabi noxush holatlarni ifoda etish uchun foydalanadi. Keyingi misralarda "kecha" so'zining o'ziyoq qora rangni aks ettirib tursa-da, shoir "qop-qorong'i" sifati orqali ma'noni kuchaytirib aks ettiradi:

Mening o'yimmi qora? Yoki yurt ko'kida bulut,

Quyuq bulut to'dasi qonli yosh to'kib yig'lar?

Mening bu xasta dilimni yana nechun tig'lar?

Menim-da ko'ksima boqmoqchi istar ul bir o't? ("Og'riganda" she'ridan)

Qop-qorong'i kecha... chiroqlardan

So'nggi nur ketdi, u yiroqlardan

O'kirib, guvlagan tovush keladir,

Kechaning keng sukutini tiladir...

Kechaning, balki, yig'lagan dodi,

Balki kunning alamli faryodi!... ("O'sh kechasi" she'ridan)

O'ksuk ko'ngil qushi

Tushdi qafasga,

Sira yetolmaydir

Erkin nafasga.

Qora kunlar tushdi mening boshimga. ("Qiz qo'shig'i" she'ridan)

Xulosa. Umuman olganda, ijodkorning sara asar yarata olishi faqat uning iqtidoriga, boy fantaziyasi yoki hayotiy kuzatuvlarigagina bog'liq bo'lmaydi. U, avvalo, til ilmidan, shuningdek, nutqning o'ziga xos me'yoriy o'lchovlaridan xabardor bo'lmog'i lozim. Til, nutq ilmidan xabardorlik ijodkorga yuksak saviyadagi badiiy asarlar yaratish, so'z chaqinlarini paydo etish, ko'chimlarning rang-barang, betakror ko'rinishlarini yaratish, asosiysi, lisoniy-badiiy tafakkur

egasiga aylanish imkonini beradi. Faqat soʻz zalvorini teran anglagan, ularning betakror jozibasidan oʻquvchini bahramand eta olgan ijodkorgina chinakam oʻlmas asarlar yaratishga qodir. Zotan, umrboqiy asarlar har kuni ham dunyoga kelavermaydi. Bunday asarlar soʻzning kuch-qudratiga ishongan, soʻz sezgisiga ega mahorat sohibigagina nasib qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Адизова И. Увайсий шеърлятида поэтик тафаккурнинг янгиляниши.–Тошкент: Мухаррир, 2020, – Б.34.
2. Вохидов Э. “Достонлар”. Тошкент. Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1976.
3. Haqqulov I. Badiiy matn va tahlil muammolari. “Oʻzbek tili va adabiyoti” jurnali. 2012. 4-son, 20-bet.
4. Пардаев З. Ранг-тус билдирувчи сифатларни ўрганиш// Тил ва адабиёт таълими.2003, № 3. – Б.15.
5. Sabriddinov A. Soʻzning poetikkontekstdagi xususiyatlari.// Oʻzbek tili va adabiyoti. Toshkent: Fan-1990/6, B.42.
6. Турдимов Ш. Халк кўшиқларида рамз. – Тошкент: Фан, 2020. – Б.84.
7. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent.Sharq .2008. B.104.
8. Istamovna A. N. METHODOLOGICAL POSSIBILITY OF INTERTEXTUALITY IN ARTISTIC TEXT //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2023. – T. 3. – №. 31. – C. 182-191.
9. Istamovna, Adizova Nilufar. "Leksik birliklarning milliy oʻzlik ruhini ifodalashdagi roli (Erkin Vohidov dostonlari asosida)." Conferences. 2021.
10. Yarashovna, Samandarova Gulnoz, Adizova Nilufar Istamovna, and Bozorova Gulmira Zayniddinovna. "Methods of Using Metaphorical, Pleonastic and Paremic Units in Uzbek Linguistics." Res Militaris 13.2 (2023): 5560-5572.
11. Istamovna, Adizova Nilufar. "The power of creative expression-On the example of Erkin Vakhidovs epics." Zien Journal of Social Sciences and Humanities 8 (2022): 104-112.
12. Istamovna, Adizova Nilufar. "Eternal Life of Heroes of Uzbek and English Epics." (2023).
13. Adizova, Nilufar. "Methods of Using Metaphorical, Pleonastic and Paremic Units in Uzbek Linguistics." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 45.45 (2024).

14. Adizova, Nilufar. "BADIY MATNDA SO 'ZLAR JILOSI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 45.45 (2024).

15. Istamovna, Adizova Nilufar. "Eternal Life of Heroes of Uzbek and English Epics." (2023).

16. Istamovna, Adizova Nilufar. "METHODOLOGICAL POSSIBILITY OF INTERTEXTUALITY IN ARTISTIC TEXT." INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 3.31 (2023): 182-191.

17. Istamovna, Adizova Nilufar. "OCCASIONAL DERIVATIVES IN CREATIVE EPICS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.5 (2022): 146-152.

18. DOSTONLARINING, Nilufar Istamovna Adizova ERKIN VOHIDOV. "FONETIK-FONOLOGIK XUSUSIYATLARI." Academic research in educational sciences 1 (2022).

19. VOHIDOV-INSON, Adizova Nilufar Istamovna ERKIN, and KECHMISHLARINING MOHIR KUYCHISI. "ORIENSS. 2021.№ 3." URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/erkin-vohidov-inson-kechmishlarining-mohir-kuychisi> (дата обращения: 27.04. 2022).

20. Istamovna, Adizova Nilufar. "SAYOHAT TURIZMIGA OID MATNLARDA MILLIY-MADANIY BIRLIK LARNING LEKSIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI." «CONTEMPORARY TECHNOLOGIES OF COMPUTATIONAL LINGUISTICS» 2.22.04 (2024): 479-484.

21. Adizova, Nilufar. "BADIY MATNDA SO 'ZLAR JILOSI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 45.45 (2024).

22. Adizova, Nilufar. "ERKIN VOHIDOV DOSTONLARIDA FRAZEOLIK BIRLIK LARNING QO 'LLANISHI." FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI 6.6 (2021).

23. Istamovna, Adizova Nilufar. "ERKIN VOHIDOV-INSON KECHMISHLARINING MOHIR KUYCHISI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.3 (2021): 454-461.